

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

# FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» «Scientific journal of the Fergana State University» jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

## Tahrir hay'ati

### Bosh muharrir Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

## Tahririyat kengashi

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)  
ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)

YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.A. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)  
ORIPOV A. (O'zbekiston)

**Muharrir:**

Sheraliyeva J.

## Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'ozi.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

---

<b>O.Shukurov</b>	
Neym neologizmlar xususida .....	244
<b>G'.Abduvaxobov</b>	
Amaliy tilshunoslik: elektron lug'atlar yaratish konsepsiysi.....	250
<b>N.Maxmudova</b>	
Ornitonimlarning qiyosiy tahlili: o'zbek va ingliz tillarida qush nomlari bilan bog'liq birliklarning ishlatalishi.....	257
<b>H.Davlatova</b>	
Bolalarning aqli va nutqi rivojlanishida oilaning ta'siri.....	262
<b>V.Abdurahmonov</b>	
Alternativ so'roq gaplarning uslubiy-semantik tasnifi.....	267
<b>F.Temirova</b>	
Badiiy diskurs va diskursiv tahlil .....	271
<b>A.Mirzaev</b>	
Ko`p tillilik va uning yangi tilni o`rganishga ta'siri .....	276

---

## PEDAGOGIKA

<b>B.Khodjaev, B.Baydjanov</b>	
Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning pedagogik asoslari va muammolari.....	280

---

## ILMIY AXBOROT

<b>M.Abdukamolova</b>	
Yangi O'zbekiston: xotin-qizlar maqomi .....	288
<b>P.Ro'ziboeva</b>	
"Gilam paypoq" va "Onamning yolg'onlari" hikoyalarida ona obrazining o'xhash va farqli jihatlari .....	292
<b>Sh.Uralova</b>	
O'zbek va ingliz tilshunosligida idish-tovoq va oshxonanomlari tadqiqot obyekti sifatida.....	295

---

## FANIMIZ FIDOVYLARI

Ilimga baxshida umr .....	302
Sermaksul ilmiy ijod .....	303
Bibliografiya .....	305

## BOLALARNING AQLI VA NUTQI RIVOJLANISHIDA OILANING TA'SIRI

### ВЛИЯНИЕ СЕМЬИ НА РАЗВИТИЕ ПСИХИКИ И РЕЧИ ДЕТЕЙ

### THE INFLUENCE OF THE FAMILY ON THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S MINDS AND SPEECH

Davlatova Hulkaroy Uktamovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Davlatova Hulkaroy Uktamovna

– Andijon davlat universiteti II-bosqich doktoranti.

#### Annatasiya

Maqolada oila muhitida bolalar nutqining shakllanishiga oid muammolar hamda ularning muloqotini o'rganishga doir olimlarning izlanishlaridan namunalar bayon etilgan. Asosan, real hayotda uchrab turadigan voqealardan asnosida bolalar nutqidagi o'ziga xosliklar, rivojlanishidagi jarayonlar, turli tashqi hamda ichki ta'sirlar to'g'risida ba'zi fikr-mulohazalar aytib o'tilgan. Jumladan, Oilada bolaning nutqini o'rganish, turli tajribalar o'tkazish, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq muommolarni tahlil qilish uzoq davrdan buyon turli soha vakillarini qiziqtirib kelgan, lekin, shunga qaramay, bu yo'nalish hozirgacha to'liq o'rganilmadi, tadqiq etilmadi.

#### Аннотация

В данной статье приведены примеры проблем формирования речи детей в семейной среде, а также исследования ученых по изучению их общения. В частности, события из реальной жизни дают представление о детских речевых моделях, процессах развития и различных внешних и внутренних воздействиях. В частности, изучение речи ребенка в семье, проведение различных экспериментов, анализ проблем, связанных с его социально-психологическими особенностями, давно интересует представителей различных областей, но, тем не менее, это направление до сих пор полностью это не изучено.

#### Annotation

In this article is given examples of the problems of the formation of children's speech in a family environment, as well as research by scientists to study their communication. In particular, real-life events provide insight into children's speech patterns, developmental processes, and various external and internal influences. In particular, the study of the child's speech in the family, conducting various experiments, analyzing the problems associated with its socio-psychological characteristics have long been of interest to representatives of various fields, but, nevertheless, this direction has not yet been fully studied.

**Kalit so'zlar:** bolalar nutqi, ijtimoiy hayot, jamiyat, yosh avlod, nutqiy muloqot, aqliy faoliyat, oila, muloqot, omil, ota-onा.

**Ключевые слова:** детская речь, социальная жизнь, общество, подрастающее поколение, речь, психика, семья, общение, фактор, родитель.

**Key words:** children's speech, social life, society, the younger generation, speech, psyche, family, communication, factor, parent.

#### KIRISH.

Bolalarining aqli va nutqi rivojlanishida oilaning ta'siri hozirgi vaqtida alohida e'tibor berilayotgan sohalardan hisoblanadi. Bolalar nutqining rivojlanishida oilaning ta'sirini o'rganish zarurati hozirgi davrga nisbatan nutqning rivojlanishi o'rtaqidagi munosabatlarga atalgan ilmiy asarlarning yo'qligidir.

Yosh avlodning nutqini shakllantirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilayotgan oila ta'siri effekti xorijlik olimlar o'rtaqidagi XX asrning 30-yillari boshidan qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. Dastlab bu boradagi tadqiqotlarni biz L.S Vigotskiyning psixologiyada bolaning ruhiy rivojlanishidagi ijtimoiy muhitning roli haqidagi madaniy-tarixiy pozitsiyani ochib bergenligida ko'rishimiz mumkin.[1] So'ng A.N.Leontev, D.B. Elkonin, A.V.Zaparoeslar oiladagi ijtimoiy sharoitlar bolaning nutqiy, aqliy va jismoniy rivojlanishiga ta'sirini o'z asarlarida atroficha yoritganlar.[3:26]

Yuqorida aytib o'tilgan olimlar ota-onা va bolalar o'rtaqidagi tarixiy o'ziga xos munosabat tizimini hamda bolalar nutqi rivojlanishida oilaning ta'sirini o'zaro axloqiy mas'uliyat bilan bog'langan kichik ijtimoiy guruh sifatida ta'riflaydilar.

## TILSHUNOSLIK

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.**

A.N.Leonteving ta'kidlashicha, bolalarning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabati, insoniyat tomonidan barpo etilgan madaniyatni o'zlashtirishi ularning nutqiy, aqliy rivojlanishida, shaxsiyatini shakllanishida muhim rol o'yaydi.[3:473] Quyida olimning bolalarning jamiyat bilan o'zaro munosabatini ifodalagan dialogni keltirishimiz mumkin:

- *Egam Fotiga uylansa, xorijga ketisharmish.*
- *Foti G'ulomga beshik ketdi bo'lgan-ku!*[6:195]

Bunda o'quvchi qizlarning o'zaro nutqiy muloqotidan olingen "beshik ketdi" iborasi, (yoshligidan unashtirilgan, fotiha qilingan) ma'nosida qo'llanilgan. Har bir millatning madaniyatiga, milliy mentalitetiga, utf-odatiga oid so'zlarni bolalar yoshligidan jamiyat ta'sirida, katta-kichiklar bilan o'zaro munosabatga kirishish orqali o'zlashtiradilar va shu ruhda kamol topadilar. Bu esa bevosita ularning nutqiy, aqliy rivojlanishida, shaxsiyatini shakllanishida alohida muhim ahamiyatga ega hodisadir.

Oilada bolaning nutqini o'rganish, turli tajribalar o'tkazish, uning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan bog'liq muommolarni tahlil qilish uzoq davrdan buyon turli soha vakillarini qiziqtirib kelgan, lekin, shunga qaramay, bu yo'nalish hozirgacha to'liq o'rganilmadi, tadqiq etilmadi. Yevropa olimlarining bolalar nutqiga oid qilgan ishlarini o'rganishi natijasida hozirgi kunda bu sohaga qiziqish yanada ortmoqda. Aksariyat holatlarda maktabgacha yoshdag'i, maktab yoshidagi bolalar nutqining buzilishi, nutqning kechikish holatlari oilada kuzatilmoqda. Bolalar nutqi ustida o'tkazilgan bir necha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bola nutqining rivojlanishida yoki kechikishida ota-onha asosiy funksiyani bajaradi.

Bolaning nutqini, shaxsiyatini shakllantirishda oilaning ahamiyati, ta'siri va o'zgarmasligi borasida ko'plab xorijlik va yurtimiz tadqiqotchilari ilmiy izlanishlar olib borganlar va hozirda ham davom ettirmoqdalar.

a) *O'g'lim, - dedi tik turgan qariya bir kishilik o'rindiqda o'tirgan o'smirga yuzlanib, - mana bu 80 dan oshgan buving ozgina qiynalib qoldi, chog'i, senga qiyin bo'lmasa, qo'lidagi tugunchani tizzangga ovolsang, ancha savob ish qilgan bo'larding-da. Yoki...*

*Cholning gapi hali tugamasdan o'smir yigit qo'pollik bilan:*

– *Bu menga buvi emas, kesatmasdan tur o'rningdan, o'tirishga haqqing yo'q, deb aytavering, - dedi dag'allik bilan o'rnidan turarkan.*

*Kampir xijolatda: - Bolam o'tiravering, men hali toliqqanim yo'q. Buvangiz betobligim uchun menga achinib, shunchaki aytdilar-da. Sizlar kuni bilan oyoqda turib, ko'proq charchaysizlar, bolam!*

*Yigitcha yana qo'pollik qildi: - Turdim-ku, endi ko'p va'z o'qimay, o'tiravering-da.*

– *Xo'p bo'ladi, bolajonim. Rahmat, baraka toping, umringiz uzoq bo'lsin, kamlik, xorlik ko'rmanq. Qarilik - Sizga ham nasib qilsin!*[10]

b) - *Nega paxtalar to'kilibi-a? - dedi Salim.*

- *Kechasi Karim tog'a mashinasida paxta tashigandir, - deb tushuntirdi Vali va o'zi ham so'rab qo'ydi: - Mashinada ortilgan paxtalarni qayoqqa olib borishadi?*

- *Zavodga olib borishadi, - ishonch bilan javob berdi Salim.*

- *Zavodda nima qiladi?*

- *Zavodda-chi, chigitni olib, paxtasini fabrikaga yuborisharkan...*

- *Undan keyin-chi?*

- *Odamlarga ust-bosh qilinadi. Rahimaning qo'g'irchog'iga ko'rpacha tikiladi, undan keyin qishda sovqotmasin deb bizga quloqchin tikishadi...*[6:124]

Keltirilgan misollardan ko'rindaniki, oiladagi har qanday holat bolaning nutqiy rivojlanishiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Dastlabki (a) misoldagi o'smir bolaning nutqi, ya'ni qo'pol munosabati, serzardaligi oiladagi noto'g'ri nutqiy tarbiyani yaqqol namoyon qilgan. Bola nutqidagi (**Bu menga buvi emas, kesatmasdan tur o'rningdan, o'tirishga haqqing yo'q deb aytavering, Turdim-ku, endi ko'p va'z o'qimay, o'tiravering-da**) qo'pol so'zlarni o'rniga, chiroyli nutqiy ifodalardan "**avtobusga chiqqan vaqtilaringda sizlarni ko'rmay qolibman, keling, meni o'rnimga o'tiring**" foydalansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bola nutqida tajovuzkor so'zlarni qo'llanilishiga asosiy sabab shuki, oilada ota-onha farzandining nutqidagi so'zlarga be'tibor bo'lganligidadir.

Ikkinchisida esa sinfdoshlar: Vali va Salimning nutqidan misollar keltirildi. Vali Salimga qaraganda ayyor, so'zga chechan bola, ba'zi holatda yolg'on so'zlar ham ishlatib qo'yadi, Salim esa rostgo'y, matabda a'llo baholarga o'qiydi, bo'sh vaqtida ko'proq kitob mutoalasi bilan mashg'ul bo'ladi. Ko'p kitob o'qishligi va o'qituvchilar oilasida voyaga yetayotgani Salimning nutqidagi so'zlarda namoyon bo'lgan. (*Zavodga olib borishadi, Zavodda-chi, chigitni olib, paxtasini fabrikaga yuborisharkan..., Odamlarga ust-bosh qilinadi. Rahimaning qo'g'irchog'iga ko'rpancha tikiladi, undan keyin qishda sovgotmasin, deb bizga quloqchin tikishadi.*) Salimning dunyoqarashi, bilimga chanqoqligi, ilmdan xabardorligi nutqida o'z ifodasini topgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bilamizki, MTV telekanalida "Bola tilidan" ko'rsatuvi berib boriladi. Ko'rsatuvda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolajonlarga boshlovchi Ruhshona tomonidan bolalarga o'zlarini yoshlariga mos savollar beriladi. Bolalarning nutqiy munosabatga kirishishi jarayonida ularning dunyoqarashi va oilaviy muhit yaqqol namoyon bo'ladi. Ko'rsatuvlardan birida Ruhshona tomonidan 6 ta o'g'il va 1 ta qiz bolaga quruvchilar boshiga kiyiladigan bosh kiyim ko'rsatildi:

1-bola "kaska", 2-bola esa "tog'oracha", 3-4-bolalar "kepka", - deb javob berdilar. 5 yoshli bola "bunga kartoshka, piyoz, sabzi soladi" (bolalarda bir buyumga nisbatan har xil tasavvur paydo bo'ldi), 6 yoshdagagi qizcha esa bu ustalarning narsasi, - dedi. Oxirida 7 yoshli bola bu kaska, buni ustalar kiyadi, boshiga hech narsa tushmasligi uchun, - deb turlicha javoblarni berdilar[8]. Bundan ko'rinish turibdiki, oiladagi muhitni, tarbiyani, o'zaro munosabatni bolalarning nutqi ko'rsatib beradi.

Demak, ularning fikrlashi, dunyoqarashi, oiladagi muhit turlichadir. Bolalar orasidan 7 yoshli o'g'il bola "**bu kaska, buni ustalar kiyadi, boshiga hech narsa tushmasligi uchun**" – deb to'g'ri javobni berdi. Oila a'zolari uning bilim olishi, bo'sh vaqtini doimo nazorat qilishi boshlovchi bilan nutqiy munosabatga kirishuvidan ma'lum bo'lgan.

Ko'rsatuvning birida boshlovchi tomonidan 4,5,6 yosh o'g'il va qiz bolalarga kalkulyatorni ko'rsatib, bu nima? - deb savol berildi.

- ***Bu ishga kerak, sonni bilish uchun, - dedi (6 yosh)***
- ***Mana bunday qiladigan deb, raqamlarni bosib ko'rsatdi. (4 yosh)***
- ***Bu kompyuterni kichkinasi, bunda narsa yozadi, - dedi.(5 yosh)***
- ***Bu narsalarni olib bo'lgandan keyin necha pul chiqqanini chiqaradi, - deyishdi 6 yosh qizlar.[9]***

Bolalardan 6 yoshli o'g'il va qizlar nisbatan aniqroq javob berdilar. 4 va 5 yoshdagagi bolalarning nutqidan ularning fikrlari tarqoq va o'yinqaroq ekanligini bilish mumkin. 4 yashar bola kalkulyatorni qanday qilib ishlatalishligini ko'rgan, lekin uni nima maqsadda foydalanish mumkinligi tushunmaydi, shuning uchun xayoliga kelgan javobni ifoda etdi.

A.S. Spivakovskayaning yozishicha, oilaning ijtimoiy zaruriyatni jamiyatdagi aholining jismoniy va ma'naviy ko'payishiga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadi.[3:200] Oilaning xususiyatlari, turmush tarzi bola rivojlanishida salbiy va ijobiy omil vazifasini o'tashi mumkin. Bolaning shaxsiyatiga ijobiy ta'sirni uning oilasidagi eng yaqin odamlardan boshqasi unga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lmaydi, aniqroq aytganda, uning nutqiy tarbiyasiga, har taraflama rivojlanishiga ota-onadan boshqa inson yetarli ahamiyat bermaydi. Shuningdek, bolani hurmat qilmaslik, uning erkin nutqiy muloqotga kirishish jarayoniga to'sqinlik qilish, bola tarbiyasiga nisbatan loqayd bo'lishlik yosh avlod nutqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir yetkazadi. Bunday holatni quyidagi misol orqali ham ko'rish mumkin:

- ***Nima qilamiz o'zi? - dedim ovozimni balandlatib.***
- ***O'chir! Jo'raboshi kerasin hidi anqib turgan mushtini burnimga tiradi. – G'ing desang, suvga otvoraman.***
- ***Qo'yvor, eshshak! - dedim bo'g'ilib. - Baribir aytib beraman![7:176] (13-14 yosh bolalar nutqidan)***
- ***Aytib ko'r-chi! – Jo'raboshi yana mushtini do'laytirdi. – Jig'ingni ezib qo'yaman![7:177] Temir o'rtog'ining shu sho'ng'iganicha bedarak ketganidan yuragi bezovta tepe boshlagan Xoldar kampirga g'azabnok yuzlanib, qichqirdi:***
- ***Eshagingdan o'rgildim! Temirtakni cho'ktirding-ku, yalmog'iz! Kallangni uzvolaman hozir. (6 yoshli Xoldar)***

## TILSHUNOSLIK

Keltirilgan misollardagi bolalarning nutqidagi ayrim (*O'chir!, g'ing desang, suvga otvoraman, eshshak! Jig'ingni ezib qo'yaman! Yalmog'iz! Kallangni uzvolaman*) ijtimoiy guruh vakillari foydalananadigan so'zlarni qo'llashi ota-onalar tomonidan ularning nutqiga e'tiborsiz bo'lganligi anglashiladi. Oilada farzandlarining o'sib ulg'ayib, kamol topishiga, ularning nutqini har taraflama mukammal bo'lishiga, kelajakda insonlar bilan erkin muloqotga kirishishlariga yordam beradigan ota-onalarni ham ko'plab uchratishimiz mumkin.

- Charos, ayt-chi, sen katta bo'lsang kim bo'lasan?

- **Yozuvchi bo'laman**, - bosh qotirmasdan, o'qlanib turgan miltiqdek javob qaytardi.

- Nimaga aynan yozuvchi bo'lasan? - yanada qiziqib so'radim.

- Chunki yozuvchi bo'lish uchun hamma narsani bilish kerak!

- Qanday qilib hamma narsani bir odam bilishi mumkin? - hayron bo'lib so'radim.

- Yozuvchilik duniyoda **sakkizinchı mo'jiza**, deyishadi. Nega desangiz, yozuvchi bir vaqtning o'zida ham yig'lashi, ham kulishi hamda buyuk sehrgar bo'lishi mumkin, xuddi **Hoshimjon Ro'ziyevga o'xshab**.[2:107]

- O'shanda murabbiy meni o'rinsiz xafa qildi. O'zingiz ayting-chi, raqibining qulog'idan tishlash **amerikalik Taysonga mumkin-u**, o'zbekistonlik Mo'ttivoya nega mumkin bo'lmas ekan? Amerikalikning o'zbekdan nimasi ortiq, to'rtta ko'zi bormi?[4:50]

- Bo'pti endi bu quyonlar bizniki, - zavq-shavqqa to'lib gapirdi Egamberdi, - **o'sha o'rischa jurnalda o'qiganimizdek, quyonlarimizni boqib-boqib boy bo'lib ketsak...** E o'rtoq, butun dunyoni parhezli go'shtga to'ldirib yuborardik-da... [6:39]

- Qani ayt-chi, qaysi kitoblarni o'qigansan?

- Oybekning "**Navoiy**" romanini.

- Yana?

- Yana "**O'tmishdan ertaklar**" degan kitobini.

- Yana?

- "**Girdob**" degan romanini.

- Yana?

- **Vohidovning she'rlarini**.

- **Maxtumqulining she'rlarini**.

- Sen, demak, to'xtamay o'qirkansan-da. Men bo'lsam ko'pincha oxiriga yetgunimcha boshi esimdan chiqib qolaveradi.[6:82,83]

- Egam, sendan xafaman, - dedi tashqariga chiqishgach, - shunaqangi yolg'onne bopladingki.

- Nima deb yolg'onne bopladim?

- Ertalab zargar amakiga yolg'on gapiruvding, hozir bu yerda ham yolg'onne qalashtirib tashladning. Axir, Eshon ayamiz tillani sotinglar, deganlari yo'q edi-ku. Karim, o'rtoq, qovog'ingni solma.

- Eshon ayam hajga bormaganlar-ku, sen bo'lsang tangani hoji ayam berib yubordi deysan. Nima deyay, bo'lmasa, yerto'ladagi tillalardan bir qismini olib keldim, deymi? To'g'ri hajga borganlari yo'q. Ehtimol, ayamizni endi ikkovimiz ko'tarib olib borib kelarmiz. To'g'ri, yolg'on gapirdim, hozir topgan pulimizdan o'n poyizini sadaqa qilamiz, shunda Olloh yolg'onne kechiradi. [6:111]

Birinchi misoldagi Charos 6-sinf o'quvchisi, boshlang'ich sinfda o'qiyotganidayoq, kelajakda yozuvchi, shoira bo'lishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. O'qituvchilar oilasida kamol topayotgan qiz. Ko'p vaqtini kitob mutolasiga sarf qilgani uchun dunyodagi mo'jizalar va yozuvchilarning xarakteriga xos ayrim xususiyatlarni uning nutqi orqali bilishimiz hamda uning hozirjavobligi, fikri teranligini sindoshli bilan nutqiy munosabatga kirishishligida namoyon bo'lgan.

Ikkinci misolda esa hikoya qahramoni Mo'ttivoy nutqida (*raqibining qulog'idan tishlash amerikalik Taysonga mumkin-u, o'zbekistonlik Mo'ttivoya nega mumkin bo'lmas ekan? Amerikalikning o'zbekdan nimasi ortiq, to'rtta ko'zi bormi?*) qiyosiy iboralarni qo'llanganligini guvohi bo'ldik. Maktablarda a'lo baholarga o'qigan, darslardan so'ng maktabdagi kurash to'garagiga qatnashgan, bo'sh vaqtini bekorchи ishlarga sarf qilmaganini uning nutqi orqali bilishi mumkin.

Navbatdagi misolda Egamberdi nutqida ham ijobjiy jihatlarni uchratish mumkin. O'zbek tilidagi jurnallardan tashqari rus tilida nashr etilgan jurnallarni ham o'qishligi natijasida nutqining mazmunli va suhbатdoshiga o'z maqsadini aniq yetkazib bera olishligini ko'rdik.

So'nggi misolda esa hikoya qahramonlari Karimberdi va Egamberdi muloqotidan namunalar keltirilgan. Ikkala bola ham bir sinfda o'qiydilar, Egamberdi ziyoli oilaning, Karimberdi esa dehqonlar oilasining farzandlari. Uning nutqida soddaligi, to'g'ri so'zligini ko'rishimiz mumkin. Egamberdining nutqidan esa so'zga chechanligi, har qanday vaziyatdan ustamonalik bilan chiqa olishligini, sir saqlay bilishligini guvohi bo'ldik.

**XULOSA**

Ushbu maqolani yozish jarayonida, bolalarning aqli va nutqi rivojlanishida oilaning ta'siri hozirgi vaqtida alohida e'tibor berilayotgan sohalardan hisoblabgina qolmay, alohida e'tibor talab qilinadigan va ko'plab izlanishlar olib borilishi kerak bo'lgam yo'nalishdir. Ertangi kunimizning egalari bo'lmish yosh avlodning nutqini shakllantirishning jamiyatimizdag'i har bir insonning burchi va vazifasidir. Kelgusidagi ilmiy izlanishlarimizda bu tadqiqotni davom ettiramiz.

Yuqorida bir nechta olimlarning nazariy fikrlarini, amaliyot bilan bog'liq holda tushuntirishga harakat qildik va bolalarning bir necha yosh kategoriylarini nutqidan foydalandik.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Кисленко В.Я. Психологические особенности усвоения социальных норм в дошкольном возрасте. М., 1980. (Kislenko V.Ya. Maktabgacha yoshdagi ijtimoiy me'yordlarni assimilyatsiya qilishning psixologik xususiyatlari. M)
2. Qo'shnazarov A. Shaytonni tutgan ШЕРТОЙ. Glogal books. – Toshkent, 2020. (Кушназаров А. ШЕРТОЙ, поймавший черта. Глобальные книги. – Ташкент)
3. Пелипенко К. "Взаимоотношения родителей и детей как фактор нравственного воспитания и развития личности в подростковом возрасте" Автореф. дисс. канд. пед. наук. М., 1973. (Pelipenko K. "Ota-onalar va bolalar o'ttasidagi munosabatlar o'smirlilik davrida axloqiy tarbiya va shaxsni rivojlantirish omili sifatida" Avtoref. diss. samimiyy. ped. Fanlar)
4. Anvar Obidjon Mo'ttivoymisan, Mittivoymisan? qissa. "Sharq" nashriyoti - Matbaa bosh tag'ririysi – 2019. (Анвар Обиджон Ты Моттивой, Миттивой? история Издательство «Шарк» — главный редактор Matbaa)
5. Xoshimov O'. Dunyoning ishlari (qissa) qayta nashr. – Toshkent : MERIYUS 2015. (Хошимов О. Мировые произведения (рассказ) переиздание. – Ташкент)
6. To'xtaboyev X. Quyonlar sultanati. 36,82,83,111,195-betlar. Sarguzasht roman. – Toshkent. Yangi asr avlod 2019 yil. (Тохтабоев Х. Кроличье царство. Приключенческий роман. Новое поколение)
7. To'xtaboyev X. Qaylardasan bolaligim. Qissalar, ertaklar, hikoyalalar. Yangi asr avlod. –Toshkent. 2020. (Тохтабоев Х. Где ты, мое детство? Рассказы, сказки, рассказы. Новое поколение.)
8. [https://www.youtube.com/watch?v=m92O\\_yYaYLY](https://www.youtube.com/watch?v=m92O_yYaYLY)
9. [https://www.youtube.com/watch?v=m92O\\_yYaYLY](https://www.youtube.com/watch?v=m92O_yYaYLY)
10. <https://gulxan.uz/hikoyalalar/shirin-so-zim-rizq-u-ro-zim>

(Taqrizchi: D.Yuldasheva – Filologiya fanlari doktori)